




Nogironligi bor bolani parvarish qilayotgan qonuniy vakilga to‘lanadigan nafaqa




Illyustratsiya	Oson matn
	Bu maqolada nogironligi bor bolani parvarish qilayotgan qonuniy vakilga to‘lanadigan nafaqa haqida ma’lumot beriladi.
	**Qonuniy vakil** – bu yordamchiga muhtoj 18 yoshgacha bo‘lgan nogironligi bor bolaga doim **qaraydigan** va uning nomidan **qonuniy ishlarni** bajaradigan inson.
	Prezidentning 2022-yil 17-fevraldagi 74-sonli Farmoniga ko‘ra yordamchiga muhtoj 18 yoshgacha bo‘lgan nogironligi bor bolalarga **qaraydigan** qonuniy vakilga **oylik nafaqa** beriladi.
	Qonuniy vakilga **oylik nafaqa berish** Vazirlar Mahkamasi qarori bilan amalga oshiriladi.



	18 yoshgacha bo‘lgan nogironligi bor bolaga qaraydigan inson ya’ni qonuniy vakil har oy **500 000 (besh yuz ming) so‘m** nafaqa oladi.
	Yordamchilik nafaqasini olish uchun nogironligi bor bola “**O‘zgalar parvarishiga muhtoj bo‘lgan nogironligi bor 18 yoshgacha bolalar”** turiga kirishi kerak.
	Prezident Farmonida yozilgan kasallik turlariga qarab, yordamchiga muhtoj 18 yoshgacha bo‘lgan nogironligi bor bolaga **qonuniy vakillik nafaqasi** beriladi.
	**Yordamchilik nafaqasi** nogironligi bor bola 18 yoshga to‘lgunicha beriladi.[1]
	Nogironligi bor 18 yoshgacha bo‘lgan bola **yordamchiga muhtoj** deb topilganidan keyin **qonuniy vakil** beriladi.

	**Qonuniy vakil tayinlash uchun:** • shifokorlar guruhi (TIEK) vakil ma’lumotlarini internet orqali yashash joyidagi **Iqtisodiyot va moliya** vazirligining tuman (shahar) Nafaqa bo‘limiga yuboradi.
	18 yoshgacha nogironligi bor bolada **OITS** kasalligining **4 bosqichi** bor.
	OITS kasalligi bor bola vakilining ma’lumotlarini Sog‘liqni saqlash vazirligi yashash joyidagi Nafaqa bo‘limiga internet orqali yuboradi.
	OITS – bu qonda bo‘ladigan kasallik.
	Qonuniy vakilning ma’lumotlarini yaratish tartibi haqida Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 23-martdagi 119-sonli qarorining 5-6 ilovasida bilib olishingiz mumkin.

	Qonuniy vakilning ma’lumotlari **qarindoshlikni tekshirish uchun** Adliya vazirligi, Maktabgacha ta’lim va maktab ta’limi vazirligiga yuboriladi.
	Adliya vazirligi, Maktabgacha ta’lim va maktab ta’limi vazirliklari Nafaqa bo‘limi yuborgan ma’lumotlarni o‘rganib bo‘lib, qayta yuboradi.
	Vazirliklar 18 yoshgacha nogironligi bo‘lgan bolaning qonuniy vakili ma’lumotlarini tasdiqlamasa nafaqa berilmaydi.
	Qonuniy vakilga **nafaqa berish belgilansa,** ma’lumotnomada yozilgan telefon raqamiga • nafaqa berish vaqti • nafaqa miqdori • qayerdan olish haqida SMS-xabar [2] keladi.
	Vazirlar Mahkamasining 119-sonli qarorning 3-4 ilovalarida yordamchilik nafaqasini berishda davlat xizmatlari tartibi haqida yozilgan.

	Nogironligi bor 18 yoshgacha bo‘lgan bolalarning yordamchilari My.Gov.uz internet manzili orqali yordamchilik nafaqasini olish uchun masofaviy ariza berishlari mumkin.
	Yordamchilik nafaqasini olishga ariza berish uchun: • MyGov.uz internet manzilidan ro‘yxatdan o‘tish kerak.
	Ro‘yxatdan o‘tgandan keyin: • **ijtimoiy himoya bo‘limi** tanlanadi
	Ijtimoiy himoya bo‘limidan keyin: • **Nafaqa tayinlash uchun ariza berish** bo‘limi tanlanadi.
	Keyin: • **Xizmatdan foydalanish** tugmasi bosiladi • ekranda ko‘ringan so‘rovnoma to‘ldiriladi ariza yuboriladi.

	Ariza yuborilganidan keyin bir necha soat ichida • My.gov.uz yoki **SMS** orqali **ariza javobini** bilishingiz mumkin.
	**Yordamchilik nafaqasini** olish uchun **davlat xizmatlari markazi**ga borib, **xodimlar bilan** birga **ariza topshirish** ham mumkin.
	**Davlat xizmatlari markaziga vakil:** • **pasport** • **yordamchilik nafaqasini olish huquqini beruvchi hujjatlar**ni olib borishi kerak.
	Yordamchilik nafaqasini olish huquqi berilgandan keyin vakil **xohlagan vaqtda** nafaqa olish uchun **bank bo‘limlariga** murojaat qilishi mumkin.[4]
	Nafaqalar har oy 5-sanagacha o‘z egalariga yetkaziladi. [5]

	Yordamchilik nafaqasi nogironligi bor bola 18 yoshga to‘ladigan oygacha beriladi.
	Masalan: ● Yordamchiga muhtoj nogironligi bor 1 bola 22-avgustda 18 yoshga to‘lsa, yordamchilik nafaqasi avgust oyi uchun ham beriladi.
	Yordamchilik nafaqasini oluvchi inson boshqa joyga ko‘chib ketsa, nafaqa yangi yashash joyidagi bank bo‘limidan beriladi.